



## O'QUVCHILARNI INTELEKTUAL RIVOJLANTIRISHDA DIDAKTIK O'YINLARNING O'RNI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6339248>

**Pirimbetov Baxit Allabaevich,**  
*Nukus davlat pedagogika instituti*  
*1-bosqich maqsadli tayanch doktoranti*

**Rezyume:** Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini intellektual jihatdan rivojlantirishda didaktik o'yinlarning ahamiyati, o'quvchilarni intellektual rivojlantirish omillari bayon etilgan. SHuningdek, maqolada ta'lim tizimini rivojlantirishga oid hukumat qarorlari, me'yoriy-huquqiy hujjatlar tahlili berilgan, mavzuga oid ayrim ilmiy tadqiqot ishlariga murojaat qilingan. Eng asosiysi, o'quvchilarni intellektual jihatdan rivojlantirishda xalqning boy milliy, ma'naviy-tarixiy an'analarga, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib amaliyotga joriy etish davr talabi ekanligi ta'kidlangan.

**Резюме:** В данной статье описывается значение дидактических игр в интеллектуальном развитии учащихся. В статье также приводится анализ государственных решений по развитию системы образования, нормативных документов, а также упоминаются некоторые исследования по данной теме. Самое главное, необходимо разработать и внедрить эффективные организационно-педагогические формы и средства, основанные на богатых национальных, духовно-исторических традиция, обычаях и общечеловеческих ценностях народа в интеллектуальном учащихся.

**SUMMARY:** This describes the importance of didactic games in the intellectual development of learners. The article also provides an analysis of government decisions on the development of the education system, regulatory documents, and also mentions some studies on the topic. Most importantly, it is necessary to develop and implement effective organizational and pedagogical forms and means based on rich national, spiritual and historical traditions, customs and human values of the people in intellectual learners.

**Kalit s'yzlar:** uzluksiz ta'lim tizimi, milliy ta'lim-tarbiya, o'qituvchilar, didaktik o'yinlar, zamonaviy bilimlar, ilm-fan rivoji, murakkab texnologiyalar, intellektual rivojlanish, kadrlar tayyorlash.



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022"

**Ключевые слова:** *система непрерывного образования, народное образование, педагоги, дидактические игры, современные знания, развитие науки, комплексные технологии, интеллектуальное развитие, обучение.*

**Key words:** *lifelong education system, public education, teachers, didactic games, modern knowledge, development of science, integrated technologies, intellectual development, training.*

O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovacion shakllari va usullarini joriy etish davlat va jamiyatimizning ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan asosiy vazifalar hisoblanadi. SHuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son Farmoniga muvofiq: mustaqilligimizning poydevorini mustahkamlashda, O'zbekistonning buyuk davlatga aylanishida ta'lim-tarbiya ishlarini oqilona yo'lga qo'yish, fuqarolarni zamonaviy ilm-fan texnologiyalari yutuqlari bilan muntazam ravishda tanishtirib borish katta ahamiyatga ega. Bu taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan etuk, zamonaviy bilimlar va murakkab texnologiyalarni egallagan, iymoni butun, irodasi baquvvat, teran fikrlaydigan, yuksak salohiyatga ega bo'lgan kadrlar hal etadi. YUrtimizning kelajagi mamlakatimizning intellektual salohiyati, aql-zakovoti, milliy ta'lim-tarbiya tizimini jahon andazalari asosida takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash hamda kadrlar tayyorlashga bevosita bog'liq.

YUrtimiz taraqqiyotini rivojlantirish yo'lida chuqur islohotlar olib borilayotgan bir paytda, O'zbekiston Respublikasining "YOshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni, bugungi davr talablariga mos ravishda har tomonlama barkamol rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, zamonaviy texnologiyani mukammal o'zlashtirgan, xalq manfaati yo'lida bor kuch va salohiyatini safarbar qiladigan, shijoatli va iqtidorli yoshlarni va kasb egalarni tarbiyalash, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish, huquqiy poydevor yaratish eng dolzarb muammolardan biri hisoblanmoqda. SHu nuqtai nazardan ushbu ilmiy tadqiqot ishi dolzarb muammo echimiga qaratilgan.

Didaktik o'yinlar - ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus ta'limiy o'yinlar. Didaktik o'yinlar o'quv mashg'ulotining turi bo'lib, o'quv o'yinlari shaklida tashkil etiladi. Didaktik



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022"

o'yinlar o'yinga asoslangan faol o'qitish prinsiplariga tayanadi. Ular muayyan qoidalarning mavjudligi, o'yin faoliyati tarkibining qayd etilishi, baholash tizimiga ega bo'lgan faol o'qitish metodidir.

Yuqoridagi ilmiy adabiyotda didaktik o'yinlar haqida ilmiy asoslangan va tajribada sinalgan fikrlar bayon etilgan.

Bundan tashqari, didaktik o'yinlarning o'quvchilar rivojlanishiga ta'siri haqida bir qator respublikamiz pedagog va psixolog olimlari ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar. R.Safarova, B.Adizov, B.Qodirov, V.M.Karimova, R.Sunnatova, Z.Nishonova, R.Nurjanova, R.YArmatov, N.Dilova kabilar shular jumlasidandir. Ular o'zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida o'quvchilarni intellektual rivojlantirishda didaktik o'yinlarning o'рни, o'quvchilar bilan ishlash yo'llari, ularning iqtidorlarini yanada rivojlantirish omillari xususida fikr yuritganlar.

Didaktik o'yinlarda o'quvchilarning xulq-atvori shakllanadi va ijtimoiylashadi. Bunday o'yinlarning eng muhim jihati shundaki, unda bir tomondan o'yin ishtirokchilari uni amalga oshirishda muayyan nostandart vazifalar bilan bog'liq haqiqiy faoliyatni bajarsalar, ikkinchi tomondan esa didaktik o'yinlar jarayonida o'quvchilar belgilangan ijtimoiy rollardan chetga chiqadilar. Demak, didaktik o'yinlarning ikki tomonlama vazifani bajarishi uning rivojlanuvchi natijaga ega bo'lishiga sabab bo'ladi.

Bizga ma'lumki, didaktik o'yinlar ta'limiy maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Didaktik o'yinlarning asosiy xususiyati o'yin rejasining o'quv maqsadiga yo'nalganligidadir. Chunki o'quv maqsadi o'yin vazifalari doirasida hal etiladi. Demak, bunday o'yinlar o'quvchilarni intellektual rivojlantirishning asosiy faoliyat turi bo'lib, u orqali o'quvchilar ijtimoiy hayot, moddiy-olam, tevarak-atrofni o'rganadilar va unga moslashib, hayotiy tajribalarni o'zlashtirib boradilar.

O'quvchilarni intellektual jihatdan rivojlantirish bilan bog'liq didaktik o'yinlarni tashkil etish uchun quyidagi bosqichlarni ketma-ketlikda amalga oshirish kerak. Jumladan:

didaktik o'yindan ko'zlanadigan ta'limiy maqsad va unga ajritiladigan vaqt aniqlanadi;

ta'limiy maqsad scenariysi ishlab chiqiladi;

scenariy sinfdagi o'quvchilarga o'qib beriladi, bu bilan ularning rollarni ixtiyoriy tarzda egallashlariga imkoniyat yaratiladi;

ishtirokchilar soni va muayyan rollar belgilanadi (rollarni taqsimlashda o'quvchilarning qiziqishlari, layoqatlari, bilim doiralari va dunyoqarashlarini alohida hisobga olish zarur);



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022"

belgilangan vaqt davomida didaktik o'yin amalga oshiriladi, bunda o'yinning boshlanish va kulminacion nuqtasiga chiqqanligi namoyon qilinadi, yakunida muayyan xulosa chiqariladi;

didaktik o'yin kuzatuvchilar tomonidan baholanadi.

Didaktik o'yin natijalarining tahlili o'qituvchilar va ekspertlar tomonidan olib boriladi. SHuningdek, didaktik o'yinlarda ijtimoiy rollarni bajargan o'quvchilarning sinfdoshlari tomonidan ham baholash jarayoni olib borilishi mumkin. Bunda ular o'z fikr-mulohazalarini erkin tarzda bayon etadilar. O'qituvchi esa bunday tahlil jarayonlarini boshqarib vatuzatishlar kiritib turadi. O'yin yakunida ishtirokchilar orasidan g'oliblar aniqlashtirilib, ular ekspertlar tomonidan rag'batlantiriladi.

Didaktik o'yinni amalga oshirish jarayonida ishtirokchilarning o'zlariga berilgan ijtimoiy rollarini erkin, mustaqil bajarganliklariga alohida e'tibor qaratish zarur. Bunday o'yinlar jarayonida o'quvchilar asta-sekin ijtimoiy bilimlarni egallab, jamiyatda belgilangan (maktabdagi odob-axloq) qoidalarga amal qila boshlaydilar. SHuningdek, muammo nuqtai nazardan yondashganda, didaktik o'yinlar o'quvchilarning ijodiy faoliyatlarini faollashtiradi, ijodiy qobiliyatlarini o'stiradi.

O'quvchilar bilan tashkil etiladigan didaktik o'yinning sifati va samaradorligi unda ishtirok etuvchilarning hayotiy kuzatishlari va shaxsiy tajribasiga bevosita bog'liq. Bunda o'quvchilarda mustaqillik, erkinlik, ziyraklik, tashabbuskorlik, liderlik kabi shaxsiy sifatlar tarkib topa boshlaydi.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, zamonaviy o'qitish metodlari ham ana shunday didaktik o'yinlarga tayanilgan holda tashkil etilmoqda. Didaktik o'yinlar muddatiga ko'ra, qisqa muddatli (3-5 daqiqa); o'rta muddatli (5-8 daqiqa); uzoq muddatli (10 daqiqa va undan ko'proq) bo'lishi mumkin. Didaktik o'yinlarda ishtirokchilar soni esa 2-3 nafardan boshlab 10-12 nafargacha o'quvchilardan iborat bo'lishi mumkin. O'quvchilar bilan qisqa muddatli didaktik o'yinlarni tashkil etish kutilgan samaradorlikka erishish imkonini beradi. O'quvchilarga bunday mas'uliyatli rollarni berish ularning bilim olish va intellektual jihatdan rivojlanishlarida ijobiy o'zgarishlar paydo bo'lishiga turtki beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Б.Р.Адизов. Бошланғич таълимни иждодий ташкил этишининг назарий асослари. Пед. фанл. док. ... дис. - Тошкент, 2003. -320 б.
2. В.В.Давыдов. О понятии развивающего обучения. / Педагогика, 1995, № 1. - с. 29 - 36.





## **"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022"**

3. Педагогика энциклопедияси, 1-жилд. - Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2015 й. 320б.